



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TAYYORLASH STRATEGIYASINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Dilova Nargiza Gaybullayevna

Buxoro davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: maqolada sharq mutafakkirlari merosi, uning bugungi kundagi ilmiy ahamiyati, sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash muammosi, bunda milliy an'ana, madaniyat, qadriyatlaraga asoslanish, o'qituvchilik kasbining nufuzini oshirish, pedagoglik kasbiga qiziqishni rivojlantirish, yangi davr talablari, o'qitish shakllari va modellariga muvofiq bo'lajak o'qituvchilarda shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishning dolzarb ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: sharq mutafakkirlari, shaxslararo munosobat, mutafakkirlar merosi, milliy an'ana, madaniyat, qadriyat, o'qitish shakllari, hayotiy ko'nikmalar

Аннотация: В статье наследие восточных мыслителей, его научное значение сегодня, проблема подготовки будущих учителей к межличностным отношениям через наследие восточных мыслителей, на основе национальной традиции, культуры, ценностей, повышение престижа профессии учителя, развитие интереса в педагогической профессии обсуждается новая актуальная важность развития межличностных отношений у будущих учителей в соответствии с требованиями эпохи, педагогическими формами и моделями.

Ключевые слова: Восточные мыслители, межличностные отношения, наследие мыслителей, национальная традиция, культура, ценности, формы воспитания, жизненные навыки

Annotation: In the article, the heritage of Eastern thinkers, its scientific significance today, the problem of preparing future teachers for interpersonal relations through the heritage of Eastern thinkers, based on national tradition, culture, values, increasing the prestige of the teaching profession, developing interest in the pedagogic profession, new the current importance of developing interpersonal relationships among future teachers in accordance with the requirements of the era, teaching forms and models is discussed.

Keywords: Eastern thinkers, interpersonal relationship, heritage of thinkers, national tradition, culture, value, forms of education, life skills

"Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalari" mavzusida doktolrlik dissertatsiyasi bo'yicha tadqiqot ishini olib borar ekanmiz, bunda har bir jumla izohiga alohida e'tibor qaratib, mazmunini tahlil qilishni o'z oldimizga vazifa qilib qo'ydik.

Strategiyaning o'zi nima? U qanday ma'noni bildiradi? Jamiyat rivojida strategiyaning ahamiyati qanday? kabi savollarga javob topamiz.



“Strategiya” so‘zi yunoncha “strategos” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «generalning san’ati» degan ma’noni ham anglatadi. Bundan tashqari strategiya uzoq muddatga mo‘ljallangan aniq maqsadni kafolotlovchi jarayon bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy kurashga rahbarlik qilish san’ati degan ma’nolarni ham anglatadi.

Strategiya — bu ta’limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi sifatida izchillik bilan to‘liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta’minalashga asoslangan aniq tizimdir.

XXI asrga kelib strategiya tushunchasi ancha kengayib, turli yo‘nalishlar rivoji va taraqqiyoti uchun qo‘llanib kelinmoqda. Strategiya - dunyo miqyosida barcha sohalarda vujudga keladigan turli vaziyatlarni prognozlashtirish va bartaraf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, har qanday strategiya bir biri bilan o‘zaro bog‘liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko‘plab tushunchalarda ifodalanadi.

Strategiyaning asl mohiyati taktik vazifalarni belgilashdan iborat bo‘lib, siyosat, strategiya va taktika — strategik rahbarlik va boshqaruv jihatlari bilan bog‘liq uchta mustaqil kategoriyaadir. Ularning farqi shundan iboratki, strategiya tasdiqlangan va amalga oshirish uchun qabul qilingan bo‘lsa, uning joriy qilinishi strategiyalashtirilayotgan obektning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Taktika esa strategik vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha kundalik, oylik va yillik (joriy) rejalarini va ularning yechimi bo‘yicha tadbirlarni aks ettiradi. Siyosat — bu strategiya va taktikani yagona samarali amal qiluvchi tizimga agregatsiya va integratsiya qilinishidir. Har qanday strategiyani amalga oshirish eng mas’uliyatli jarayon bo‘lib, agar u real vaziyatni to‘liq qamrab olgan yaxlit va bir butun reja bo‘lsa, uning muvaffaqiyati to‘liq ta’minalanadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, strategiya bu biron yutuq maqsadga erishishda tuzilgan va u asosida harakat qilinadigan reja va qoidalar to‘plami hisoblanadi. Qachonki, o‘z strategiyangizga ega bo‘lmas ekansiz doimiy yutuqqa va natijaga erisholmaysiz. Hamma aniq maqsadli insonlarning o‘z strategiyasi bor. Ma’lum bir maqsadga erishish uchun strategiya ishlab chiqish talab etiladi, lekin buning uchun bir qancha yo‘nalishlardagi strategiyalar o‘rganib chiqiladi va tahlil etiladi.

Ta’lim tizimi maqsadlariga erishishda ta’lim strategiyasi samarali natija beradi. Ta’lim strategiyasi – lotin tilida "qo‘llanma" degan ma’noni ham anglatadi, ushbu ma’noga asoslanilib, ta’limning o‘qitish sohasida, shuningdek, belgilangan maqsadlarga erishishda aniq maqsad bilan tashkil etilgan barcha harakatlar aniqlanadigan ta’lim strategiyasi haqida gaplashish odatiy holdir. Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish, umummilliylarini ta’lim sifatini tubdan oshirishda zamonaviy ta’lim yondashuvlariga asoslangan, xorij tajribalari bilan integratsiyalashgan ta’limni tadbiq etishda hamda boshqa o‘zlashtirish muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Shunday ekan, har bir yosh zamonaviy bilimlarni puxta egallasa, o‘z kasbining ustasi bo‘lsa, kamoliga ko‘z tikkan ota-onasi, xalqining yuzini yorug‘ qiladi, mamlakatimiz farovonligiga hissa qo‘sadi.

Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarini shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyamizning rejalarini aniq va o‘zgarmas tamoyillarga tayanadi. Natijada, ishlab chiqqan strategiyamiz tadqiqotimiz jarayonida amalga oshirish ko‘zda tutilgan islohotlarning bir maromda, izchil yo‘nalishini ta’minalashga xizmat qiladi. Jumladan, bo‘lajak o‘qituvchi o‘z vazifalarini amalga oshirishida turli ilmiy sohalardagi ma’lumotlar va xulosalar bilan qurollanmog‘i, bundan tashqari, improvizatsiya qilmog‘i, quyilgan vazifalar yechimini topishda individual va kreativ yondashuvlardan foydalanmog‘i lozim. Mazkur tanlangan tamoyillar oldin qabul qilingan qarorlarni



o‘zgartirish ehtimoli yoki o‘zgaruvchan vaziyatdan kelib chiqib, qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini berishi zarur.

Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategik dastur va rejasining uyg‘unligi hamda turli darajadagi qarorlarning mustahkam bog‘liqligi shaxslararo munosabatlarga kirisha olish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi muvaffaqiyatni kafolatlaydi.

Shaxslararo munosabatning jamiyat hayotidagi tutgan o‘rni haqida mulohaza yuritadigan bo‘lsak, quyidagilarga alohida ahamiyat berishni joiz deb hisoblaymiz:

Shaxslararo munosabatlar jamiyatda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, chunki ular ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish va qo’llab-quvvatlash uchun asos bo‘lib, o‘z navbatida shaxslar va jamoalarning farovonligi va faoliyatiga hissa qo’shamdi.

Birinchidan, shaxslararo munosabatlar ma'lumotlar, g’oyalar va hissiyotlar almashinuvini osonlashtiradi, odamlarga bir-birini tushunish va samarali muloqot qilish imkonini beradi. Bu umumiylashtirishda erishish va muammolarini birgalikda hal qilish uchun zarur bo‘lgan hamkorlik va hamkorlikni rivojlantiradi.

Ikkinchidan, shaxslararo munosabatlar odamlarga hissiy yordam, tegishlilik tuyg‘usi va o‘ziga xoslik manbai bilan ta’minlaydi. Oila, do’stlar va tengdoshlar bilan ijtimoiy aloqalar insonning umumiylashtirishiga hissa qo’shamdi va bu aloqalarning etishmasligi ijtimoiy izolyatsiya va ruhiy salomatlik muammolariga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, shaxslararo munosabatlar ijtimoiy tartibni saqlashga va deviant xattiharakatlarning oldini olishga yordam beradi. Shaxslar va guruhlar o’tasidagi mustahkam munosabatlar jamiyat va ijtimoiy mas’uliyat hissini yaratadi, bu esa odamlarni jamiyat normalari va qadriyatlariga moslashishga undaydi.

Yuqoridagilarga asoslanib, shuni ta’kidlash joizki, insoniyat faoliyatining barcha jabhalarida shaxslararo munosabatlar ijtimoiy hamjihatlikni rag’batlanirish, individual o’sishni rag’batlanirish va jamiyatning ishlashini ta’minlashda hal qiluvchi muhim o‘rin va ahamiyatga ega.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abu Reyhan Biruni. Izbrannyye proizvedeniya, I. Tashkent. AN UzbSSR. 1957, s.87-89.
2. Ibn Sino. Donishnoma, Stalinobod, 1957, 202-bet.
3. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. T., “Fan”, 1983.
4. С.Р.Раджабов, К.Х.Хошимов, К.М.Муминходжаев, С.К.Каримова Антология педагогической мысли: Педагогика, 1986. – 320 с.
5. Андреева Г.М. Социальная психология. Учебник для высших учебных заведений. – М.: Аспект Пресс, 2001. – 384 с.
6. Психологические основы подготовки будущих учителей к межличностным отношениям // “PEDAGOGIK MAHORAT” Ilmiy-Nazariy Va Metodik Jurnal. // 2022, № 3-4. 75 бет 2022
7. Беруний Абу Райхон. Ўйлар, ҳикматлар, нақллар, шеърлар. Тўп. ва нашрга тайёрловчи Абдусодик Ирисов. Т., «Ёш гвардия», 1973. – 104 б.
8. N.G. Dilova, Sharq mutafakkirlari merosi vositasida ta’lim jarayonidagi shaxslararo munosabatlarni o‘rnatishning pedagogik xususiyatlari, “Ta’lim va innovatsion tаддиқотлар” - Xalqaro jurnal 2022.№2